**XALQ DEPUTATLARI BUXORO SHAHAR KENGASHINING**

**Q A R O R I**

2025-yil 30-oktabr VII-12-86-2-42-K/25 Buxoro shahar

**Buxoro shahridagi geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5850-sonli Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi “Geografik ob’yektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi 295-sonli, 2020-yil 20-yanvardagi “Mamlakatda davlat tilida ish yuritishni samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 34-sonli qarorlari ijrosini ta′minlash maqsadida, Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasi tomonidan Buxoro shahridagi **44 ta** geografik ob’yektni nomlash va qayta nomlash bo‘yicha takliflardan **44 ta** geografik ob’yektga taklif etilgan nom O‘zbekiston Respublikasining “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi Qonun hujjatlari talablariga muvofiq deb topilib, belgilangan ekspertiza xulosasi tasdiqlangan.

Buxoro shahrida amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ishlar to‘g‘risidagi shahar hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Zikrillayevning hisobotini atroflicha muhokama qilib, Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashi

**Q A R O R Q I L A D I:**

1. Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi kadastr agentligi, Geografik ob’yektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish ekspert komissiyasining 2025-yil 2-oktabrdagi 02/02-65-sonli Ekspertiza xulosasi hamda shahar hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya

etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Zikrillayevning hisoboti ma′lumot uchun qabul qilinsin.

2. Buxoro shahri geografik ob’yektlariga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari ilovaga muvofiq ma′qullansin.

3. Buxoro shahar ichki ishlar faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi (A.Haydarov) nomlangan va qayta nomlangan ko‘chalarga aholini ro‘yxatga qo‘yish va tegishli yo′l belgilariga o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq tashkiliy ishlarni amalga oshirsin.

4. Davlat kadastrlar palatasi Buxoro shahar filiali (Sh.Qazoqov), shahar statistika bo‘limi (U.Jo’rayev)larga:

yangi nomlangan va nomi o‘zgargan geografik ob’yektlarni shahar xaritasiga joylashtirish, shuningdek, tegishlicha statistika ma′lumotlariga o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Buxoro shahar hokimligi axborot xizmati (D.To’ymurodov), “Buxoro oqshomi” gazetasi tahririyati (I.Rajabova)lar Buxoro shahar hokimining ma′naviy-ma′rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to′g′risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta′minlash masalalari bo‘yicha maslahatchisi A.Zikrillayev bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi “Geografik ob’yektlarning nomlari to‘g‘risida”gi hamda “Davlat tili to‘g‘risida”gi Qonunlari talablari asosida ushbu olib borilgan ishlarni shahardagi ommaviy axborot vositasi hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari shahar Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (J.Matniyazov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Mazkur qaror qabul qilingan kundan e′tiboran kuchga kiradi.

Sessiya ishida raislik qiluvchi MATNIYAZOV JANIBEK

Xalq deputatlari Buxoro shahar Kengashining
2025-yil 30-oktabrdagi
VII-12-86-2-42-K/25 -son qaroriga
1-ilova

# Buxoro shahridagi geografik ob’yektlariga beriladigan nomlar va ularni qayta nomlash takliflari
# RO’YXATI

| № | Geografik obyektning turi | Geografik obyektning bog‘lanishi | Geografik obyektning amaldagi nomi | Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif | Ekspert komissiyasining umumiy xulosasi |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | Berk ko'cha | Xo'ja Gunjoriy mahallasi | Nomsiz berk | Abu Rayhon Beruniy berk | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 2. | Tor ko'cha | Ko'kaldosh mahallasi | Nomsiz 1-tor | Cho'pboz 1-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 3. | Tor ko'cha | Ko'kaldosh mahallasi | Nomsiz 2-tor | Cho'pboz 2-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 4. | Berk ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz berk | Diyonat berk | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 5. | Tor ko'cha | Sadiy Sheroziy mahallasi | Nomsiz 3-tor | Elobod 3-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 6. | Tor ko'cha | Jalol Ikromiy mahallasi | Nomsiz 2-tor | Eshonipir 2-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 7. | Tor ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz tor | Hasan Xoja Nisoriy tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 8. | Tor ko'cha | Jalol Ikromiy mahallasi | Nomsiz tor | Hisor tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 9. | Berk ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz berk | Imom Buxoriy berk | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 10. | Tor ko'cha | Shayxon mahallasi | Nomsiz 2-tor | Islohot 2-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 11. | Tor ko'cha | Xamid Olimjon mahallasi | Nomsiz tor | Muhammad G'azzoliy tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 12. | Tor ko'cha | G'afur G'ulom mahallasi | Nomsiz tor | Nastarin tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 13. | Ko'cha | Shayxon,Ko'ksaroy mahallasi | Nomsiz | Elparvar | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 14. | Ko'cha | Fayzullo Xo'jayev mahallasi | Nomsiz | Sug‘diyona | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 15. | Tor ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 101/1-tor | Marg‘iyona 1-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 16. | Tor ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 101/2-tor | Marg‘iyona 2-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 17. | Tor ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 101/3-tor | Marg‘iyona 3-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 18. | Tor ko'cha | Sadiy Sheroziy mahallasi | Nomsiz 1-tor | Numijkat tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 19. | ko'cha | Avshormahalla mahallasi | Nomsiz | Kelajak | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 20. | Berk ko'cha | Maxmud Tarobiy mahallasi | Nomsiz berk | Olchazor berk | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 21. | Tor ko'cha | Maxmud Tarobiy mahallasi | Nomsiz tor | Olchazor tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 22. | Ko'cha | Maxmud Tarobiy mahallasi | Nomsiz 15-ko'cha | Olchazor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 23. | Ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 101-ko'cha | Marg‘iyona | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 24. | Ko'cha | Sadiy Sheroziy mahallasi | Nomsiz 1-ko'cha | Numijkat | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 25. | Berk ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 3/berk | Beshqayrag‘och berk | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |

| | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| 26. | Ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 3-ko'cha | Beshqayrag‘och | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 27. | Tor ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 4/tor | Fazo tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 28. | Ko'cha | Shirbuddin mahallasi | Nomsiz 4-ko'cha | Fazo | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 29. | Ko'cha | Shayxon mahallasi | Nomsiz 8-ko'cha | Varaxsha | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 30. | Ko'cha | Dilkusho mahallasi | Nomsiz | Ravon | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 31. | Berk ko'cha | Shayxon mahallasi | Nomsiz berk | Nurafshon berk | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 32. | Tor ko'cha | Fitrat mahallasi | Nomsiz tor | Olimsho tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 33. | Tor ko'cha | Imom al-Buxoriy mahallasi | Nomsiz tor | Poyi kalon tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 34. | Berk ko'cha | Jalol Ikromiy mahallasi | Nomsiz berk | Sarrafon berk | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 35. | Ko'cha | Shergiron mahallasi | Nomsiz | Shergiron | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 36. | Tor ko'cha | Jo'ybor mahallasi | Nomsiz tor | Sulton Joʻra tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 37. | Tor ko'cha | Fitrat mahallasi | Nomsiz tor | Tursunoy tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 38. | Tor ko'cha | Ko'kaldosh mahallasi | Nomsiz 3-tor | Xo'ja Nurobod 3-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 39. | tor ko'cha | Ko'kaldosh mahallasi | Nomsiz 2-tor | Xoʻja Porso 2-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 40. | Tor ko'cha | Maxmud Tarobiy mahallasi | Nomsiz tor | Yangiariq tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 41. | Tor ko'cha | Maxmud Tarobiy mahallasi | Nomsiz 3-tor | Yuksalish 3-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 42. | Tor ko'cha | Dilkusho mahallasi | Nomsiz 5-tor | Zakovat 5-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 43. | Tor ko'cha | Otbozor mahallasi | Nomsiz 2-tor | Zarbuloq 2-tor | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |
| 44. | Koʻcha | Gulchorbogʻ mahallasi | Nomsiz 700 | Yangi Buxoro | Qonun hujjatlari talablariga muvofiq. |